



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

DARAK GAPLARDA EKSPRESSIVLIKNING IFODALANISHI

F. E. Ibragimova

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Darak gaplarda sintaktik takrorlar ko‘p uchraydi. Sintaktik takrorlar ikki xil bo‘ladi. Birinchisida gap tarkibidagi alohida olingan bo‘laklarning takrori nazarda tutiladi va uning yordamida ijodkorlar gap tarkibidagi semantik nuqtani ta’kidlash uchun ishlatadi, har bir takrorda ajratilgan intonatsiya ishlatiladi. Takrorlar ham kontakt va distant bo‘ladi. Kontakt takrorda bir so‘z o‘zi takrorlanadi, distant takrorda oraga boshqa so‘zlar kiritiladi.

Bunday takrorlar bir jumlaning o‘zida ham takrorlanadi. Masalan,

Unsiz yig‘lar ekan " O ‘zingga shukr, karami keng Allohim, o ‘zingga shukr " deya qayta-qayta takrorlardir. (Xazon rezgi. Zulmat asirasi)

Misolda "O‘zingga shukur!" takrori shukronalikni kuchaytirayapti. Bu takror distant takror turiga kiradi, chunki takrorning orasiga "karami keng Allohim" degan murojaat kiritilgan. Shunga o‘xshash:

Mayli, endi rahbarimdan javob so‘rab ulardan xabar olib kelarman.

- Shunday qil, qoqindiq, shunday qil. Aytishadi-ku, odam taftini odam oladi deb.

(Xazon rezgi. Zulmat asirasi)

Bu misolda ham shunday qil takrori orasiga qoqindiq so‘zi kiritilgan. Distant takrorda shunday qil takrori tasdiq ma’nosini bildirsa, qoqindiq so‘zi da’vat ma’nosini ifodalash uchun qo‘llanayapti.

Darak gaplarda distant takrorda ba’zan so‘zlar orasiga qasam so‘zlari ham kiritiladi:

"Agar osmonga olib chiqishsa, o‘zimni tashlardim, xudo haqqi, tashlardim. Bu yerdan qutulishning boshqa chorasi yo‘q", deb o‘yladi. (Tohir Malik. Shaytanat)



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Qasam soʻzlarining kiritilishi qatʼiy fikrni bildirayapti, maʼnoni kuchaytirayapti, tasdiq maʼnosi qoʻshilayapti.

Yarim poʻpisa, yarim hazil ohangidagi bu gap oradagi sovuqlikni picha koʻtarganday boʻldi.

- Akamsan, sen akamsan... - dedi Asadbek oʻzini jilmayishga majbur qildi. (Tohir Malik. Shaytanat)

Ushbu distant takrorda soʻzlar orasiga sen soʻzi kiritilgan va emotsionallik hosil qilingan. Yani aynan u boshqasi emas degan taʼkid kuchaytirilgan. Tasdiq maʼnosi qoʻshilgan. Koʻrinadiki, kontakt takrorlarda ekspressivlik yuzaga chiqadi, taʼkid kuchayadi. Distant takrorlarda esa soʻzlar orasiga kiritilgan soʻzlar mazmuniga koʻra emotsionallik bilan birga turli maʼno qirralari qoʻshiladi: ishonchtirish, tahdid, tasdiq, quvonch, qaygʻu kabi maʼno qirralarini qoʻshadi.

Yana bitta misol:

Jon shirin ekan. Shu shirin jon uchun xoinlik qilish oson ekan, juda oson ekan. (Tohir Malik. Shaytonat)

Baʼzan darak gaplarda bitta soʻzning takrori qisqa toʻxtam orqali ifodalanadi. Toʻxtam uch nuqta bilan ifodalanadi. Masalan,

Faqat ... Faqatgina atrofdagilarning koʻnglini notinch qilgan birgina narsa, Shodiyanning abgor boʻlgan xotirasi edi. Muhayyo opaning "asta - sekin tiklanardi, toʻgʻri avvalgi holatga butkul qaytishi mushkul muammo, ammo mashq yordamida ancha natijalarga erishsa boʻladi" degan soʻzlariga amal qilib, xarakatni boshlab yuborishdi. (Xazon rezgi. Zulmat asirasi)

Bunday toʻxtam soʻzga boʻlgan eʼtiborni kuchaytiradi va shu bilan birga soʻz ifodalagan fikrning muhimligini ajratib taʼkidlaydi, emotsionalligini oshiradi.

Sintaktik takrorlar faqat soʻzlardan iborat boʻlmay, balki jumlar ham takror ishlatiladi. Poetik matnlarda bunday takror jumlar har bir toʻrtlikdan keyin takrorlanadi. Badiiy matnda esa har bir abzastdan keyin keltiriladi. Masalan,



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

DARAXT

Daraxt, o‘z tomiridan o‘sib chiqqan Niholga aytgan ekan:

- Bahorda gulga burkanganimda boshim ustida arilar g‘ujg‘on o‘ynab, alyor aytdi. “Sizlar kimsiz?” - demadim.
- Yoz pallasi yaproqlarim zumraddek tovlanganda qushlar shohlarimda panoh topib, oshiyon qurdi. “Sizlar kimsiz?” - demadim.
- Saraton oftobi olamni yondirganda yo‘lovchilar soyamdan bahramand bo‘lib, jon saqladi. “Sizlar kimsiz?” - demadim.
- Kuz kelib, mevalarim g‘arq pishganda odamlar uzib, to‘yguncha tanovul qildi. “Sizlar kimsiz?” - demadim...

Nogahon bir nomard tanamga bolta urgan edi, hammasi har yoqqa qochdi- ketdi! Ulardan najot so‘rasam, ”sen kimsan?” deyishdi...

(O‘tkir Xoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar)

Matnda “Sizlar kimsiz?” jumlasini takrorlanmoqda. Har bir abzastdan keyin qaytarilgan ushbu jumla nohaqlik, befarqlik, e‘tiborsizlik kabilarni ifodalaydi hamda sintaktik epiforani hosil qilayapti.

Sintaktik figuralardan yana biri **gradatsiyadir** (lotin. Gradation - darajalanish) — sintaktik konstruksiyada undan keyin kelayotgan so‘z yoki so‘zlar birikmasining ma‘no kuchayishi yoki pasayishini bildiradi. Gradatsiyaning ko‘tariluvchi (klimaks) va pasayuvchi (antiklimaks) turlari mavjud. Masalan,

Oson ekan, juda oson ekan takrorida shirin jon uchun xoinlik qilish oson ekanligi ta‘kidlanmoqda. Distant takrorda so‘zlar orasiga juda so‘zi kiritilgan, shu orqali sintaktik gradatsiya yuzaga chiqayapti.

Darak gaplarda emotsionallikning ifodalanishida **jim qolish yoki sukut** usuli ham faol ishlatiladi. Jim qolish yoki sukut usuli qo‘qisdan uzilgan gapda nima haqida gap borishi mumkinligini tushunish, taassavurga ega bo‘lishni bildiradi. Yozuvda sukut uch nuqta bilan beriladi. Masalan,



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Ibrohim ro‘zg‘ori nihoyatda tang qolgan kezlari ham bog‘ni sotish haqidagi takliflarni qat‘iy rad etaverdi. Yaxshi kunlar yodgoridan, ulug‘ fothlar hadyasidan ajrashni istamagan edi... (Ahad Muhammad Tursun. Sohilsiz dengiz) Bu misolda sukut gapda ifodalangan fikrning isboti sifatida kelayapti, e‘tiborni tortayapti, tasavvurni shakllantirayapti.

Botir aka...Uyga qaytaqolaylik ... Uydagilar havotir olishadi ... Oyijon, Adajon ... Ularni kuttirmaylik...

- Sen nima desang shu ... Bir emas, yarim og‘iz gapchatoqing ...

Shodiya jilmaydi.

(Xazon rezgi. Zulmat asirasi)

Yuqoridagi misolda har bir sintaktik birlikdan keyin sukut takrorlanayapti. Sukut orqali e‘tiroz emas, balki xijolatli holat ifodalanayapti.

Antiteza (yunon. antithesis – qarama-qarshi qo‘yish) stilistik figura bo‘lib, obrazlar va tushunchalarni qarshilantiriladi. Unda ko‘proq antonimlar ishlatiladi. Sintaktik antitezada tusunchalar qarshilantirilishi ko‘rinadi. Masalan,

Asadbek ko‘pincha, dam **xursandchiligida**, dam **ko‘ngliga qil sig‘may qolganida** Jalilni yo‘qlatardi. (Tohir Malik. Shaytanat)

Misoldan ko‘rinadiki, sintaktik antiteza yordamida insonning xursandchilik va ko‘ngliga qil sig‘may qolish holatlarining bir-biriga zid ekanligi orqali insonning ichki dunyosi doimo qarama-qarshi tuyg‘ularga to‘la bo‘lishini ko‘rsatadi. Masalan,

Ichkaridan bog‘bonlari – endi oltmishni qoralagan esa-da, soch-soqoli barvaqt oqargan, qotma va qandbaland Orif ota chiqib keldi.

(Ahad Muhammad Tursun. Sohilsiz dengiz)

Ushbu misolda yoshga zid bo‘lgan soch-soqoli barvaqt oqarishi va yana yoshga nisbatan qandbaland ekanligi antiteza orqali berilishi Orif aka obrazini tasavvur qilinishini ta‘minlaydi.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Sintaktik antiteza bir jumlaning ichidagina emas, balki assosiativ bog‘langan, bir nechta gaplarda ifodalanishi mumkin. Masalan, Yoqlov borganda u “xo‘jayiningning kayfiyati qandoq?” deb so‘raydi. “A‘lo” degan javobini eshitsa, “meni ko‘rmoqchi bo‘lsa, o‘zi kelsin” deydi. “Chatoq” deyilsa, “Sen ketaver, meni onam mashinada tug‘magan, avtobusda boraman”, deb yo‘lga otlanadi. (Toxir Malik.Shaytanat)

Bu misolda xo‘jayin kayfiyatining “a‘lo” yoki “chatoq”ligi Jalilning munosabatini yuzaga chiqiradi. Yana bir misol:

Xotini ko‘ringanda esa ... tosh qotdi. Issiq jon oyoq-qo‘llarini tark etib, badaniga sovuqlik yugurdi. Dastlab xayoliga “qizim topilibdi!” degan **xushxabar** keldi. Ammo bu fikr umri yashin umridan ham qisqa bo‘di. “**Shum xabar** keltirgan!” – shu fikr uning tanasidan jonni quvib chiqara boshladi.

(Tohir Malik. Shaytanat)

Ushbu gaplarda xushxabar va shum xabar fikrlari qarshilantirilayapti va bu orqali yozuvchi Asadbek qalbidagi notinchlikni antiteza orqali ifodalayapti. Bu oddiy qarshilantirish emas, balki emotsiyaning go‘zal ifodasidir.

Toxir Malik o‘z asarida sintaktik antitezadan inson ichki dunyosini yoritish, vaziyat bilan tanishtirish, ziddiyatni aniqlash, ekspressivlikni ifodalash, ma‘noni kuchaytirish maqsadida foydalangan.

Sintaktik ellipsis nafaqat poetik asarlarda emas, balki badiiy asarlarda ham faol ishlatiladi. Ellipsis (yunon. ellipsis – tushib qolish) sukutning bir turidir. Sukut nazarda tutilgan so‘zning tushib qolishi bilan ifodalanadi. Lekin bu so‘zni mazmundan oson bilib olish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Ellipsis yordamida nutqning dinamiklik va emotsionallik xususiyati oshadi.

Ellipsisda umumtilshunoslik sintaksisi deformatsiyasi ifodalanadi. Badiiy matnda ellipsis yordamida alohida ifodaviylikka erishiladi. Badiiy ellipsis so‘zlashuv oborotlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan,



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

- To‘g‘ri aytasiz, - dedi Zohid, unga sinovchan tikilib, - qamaoqqa olish kerak. Ammo by erda emas, shahar turmasida o‘tira turadi. Haligi ikkita guvoh ham uchto‘rt kun qamoqda o‘tirsas, ancha o‘ziga kelib qoladi.

“Haligi ikkita guvoh” degan gapni eshitib, Mirsultonov sergaklandi:

- Guvohlarni ... majburiy davolanishga yuborish kerak, - dedi u Zohidga.

(Toxir Malik. Shaytanat)

Misoldan ko‘rinadiki, guvohlarni so‘zidan keyin sukut ifodalanayapti. Ayni shu joyda so‘zlar tushib qolganligi bilinadi. Mirsultonov “guvohlarni qamash kerak emas” degan gapni aytib yubormaslik uchun sukut saqlaydi. Keyin esa o‘ylab topgan “majburiy davolanishga yuborish kerak” degan fikrni aytadi.

Xulosa qilib aytganda, darak gaplarning sintaktik lingvopoetikasi juda boy va unda turli usullar yordamida emotsional-ekspressivlik hosil qilinadi. Yuqorida darak gaplarning sintaktik lingvopoetikasini yoritish uchun quyidagi usullarni tahlil qildik: 1) darak gaplarda so‘zlarning takrori; 2) sinonimlarning juftlab ishlatilishi; 3) sintaktik konstruksiyalarda grammatik jihatdan nostandart aloqaga kirishi; 4) sintaktik takrorlar; 5) sintaktik gradatsiya; 6) darak gaplarda jim qolish yoki sukut; 7) sintaktik antiteza; 8) sintaktik ellipsis.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 232 б.
- 2.Ғуломов А.Ғ., Асқарова М.А. Ҳозирги замон ўзбек тили. Синтаксис. – Тошкент: “Ўрта ва олий мактаб ” нашриёти, 1961. – 277 б.
3. Аржанова И.А. Функционально-коммуникативные и лингвопоэтические функций эллиптических онструкций в современной художественной литературе на английском языке: Дис. ... канд. филол. наук.–М.,1999.–188 с.
- 4.Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. –Тошкент: Фан,2008. –160 б.